

NOQONUNİY MIGRATSIYA VA UNING IQTISODIYOT VA XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Urozboyev Jamshid Ergash o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti
Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi magistranti
(+998997741611 urozboyevjamshid029@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20390333>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada noqonuniy migratsiyaning asosiy sabablari sifatida iqtisodiy tengsizlik, qurolli mojarolar, siyosiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va ijtimoiy omillar ko'rsatilib, bu hodisaning qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyoti va xavfsizligiga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro tashkilotlar hujjatlari, Massey, Castles, Borjas, Hanson va boshqa yetakchi olimlarning nazariy ishlari, shuningdek, zamonaviy empirik tadqiqotlar asosida amalga oshirilgan. Maqolada mehnat bozori, soliq tizimi, davlat xavfsizligi va chegaralar nazorati masalalari miqdoriy ko'rsatkichlar bilan yoritilgan. Tadqiqot natijalari noqonuniy migratsiyaga nisbatan bir tomonlama munosabat yetarli bo'lmasdan, bu murakkab hodisa ham imkoniyat, ham xavf omillarini o'z ichiga olishini ko'rsatib beradi. Muammoga samarali yechim ishlab chiqish uchun migratsiyaning asosiy sabablarini bartaraf etish, qonuniy imkoniyatlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash tavsiya etiladi.

ABSTRACT

This article analyzes the root causes of irregular migration—such as economic inequality, political instability, climate change, and social factors—while examining its multifaceted impact on the economy and security of host countries from a scientific perspective. The study is based on documents from international organizations, the theoretical works of leading scholars including Massey, Castles, Borjas, and Hanson, as well as contemporary empirical research. Issues concerning the labor market, taxation systems, national security, and border control are highlighted through quantitative indicators. The findings demonstrate that a one-sided approach to irregular migration is insufficient, as this complex phenomenon encompasses both opportunities and risk factors. To develop effective solutions, the study recommends addressing the root causes of migration, expanding legal channels, and strengthening international cooperation.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются основные причины незаконной миграции, такие как экономическое неравенство, политическая нестабильность, изменение климата и социальные факторы, а также с научной точки зрения рассматривается многогранное влияние этого явления на экономику и безопасность принимающих стран. Исследование проведено на основе документов международных организаций, теоретических работ ведущих ученых, таких как Мэсси, Каслс, Борхас, Хэнсон и других, а также современных эмпирических исследований. Вопросы рынка труда, налоговой системы, государственной безопасности и пограничного контроля освещены с использованием количественных показателей. Результаты исследования показывают, что одностороннего отношения к незаконной миграции недостаточно, так как это сложное явление включает в себя как факторы возможностей, так и факторы риска. Для разработки эффективных решений проблемы рекомендуется устранение коренных причин миграции,

расширение легальных каналов и укрепление международного сотрудничества.

Kalit soʻzlar: *noqonuniy migratsiya, iqtisodiy taʼsir, milliy xavfsizlik, mehnat bozori, iqlim oʻzgarishi, UNHCR, qochqinlar, chegaralar nazorati, xalqaro migratsiya.*

KIRISH

Noqonuniy migratsiya - *illegal migration* - bugungi kunda jahon hamjamiyatining eng muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) maʼlumotlariga koʻra, 2023-yil oxiriga kelib jahonda 117,3 million kishi koʻchishga majbur boʻlgan¹. (UNHCR, 2023). Ushbu raqam ikkinchi jahon urushidan keyingi eng yuqori koʻrsatkich hisoblanadi.

Noqonuniy migratsiya, bir tomondan, koʻplab oilalar va insonlar uchun yaxshiroq turmush sharoiti va xavfsizlik izlashning yagona yoʻli boʻlsa, ikkinchi tomondan, qabul qiluvchi mamlakatlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Mashhur tahlilchi Douglas Massey taʼbiri bilan aytganda: - "*Xalqaro migratsiya rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oʻrtasidagi katta iqtisodiy tafovutning bevosita natijasidir*"².

Ushbu maqolaning maqsadi noqonuniy migratsiyaning asosiy sabablarini keng tahlil qilish, uning qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyoti va xavfsizligiga taʼsirini ilmiy jihatdan baholash hamda muammoni hal etishga qaratilgan xalqaro tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot BMT, UNHCR, IOM, Jahon banki va yetakchi akademik nashrlar maʼlumotlariga asoslanadi.

Noqonuniy migratsiyani oʻrganish boʻyicha ilmiy adabiyot juda keng va koʻp qirrali. Migratsiya nazariyasi uni harakatlantiruvchi sabablar sifatida neoklassik iqtisodiy nazariya, migratsiyaning yangi iqtisodiy nazariyasi, dunyoviy tizim nazariyasi, ijtimoiy tarmoqlar nazariyasi kabilarga tayanadi.

Neoklassik makroiqtisodiy nazariyaga koʻra, migratsiya ish haqi miqdori orasidagi farqdan kelib chiqadi. Ishchilar ish haqi past boʻlgan mamlakatdan ish haqi yuqori boʻlgan mamlakatga koʻchadi. Harris va Todaro (1970) modeli bu jarayonni birinchi marta formallashtirib, kishilar migratsiya qilib kutilgan daromadlarini maksimalashtiradi degan xulosaga kelgan³. Iqtisodiyotda migratsiya qarori shunchaki joriy ish haqi farqiga emas, balki **kutilayotgan daromadga** (expected income) asoslanishini isbotlagan. Bunda matematik nuqtai nazardan, kutilayotgan daromad quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$E(w) = w \setminus P$$

Bu yerda $E(w)$ - kutilayotgan ish haqi, w - shahardagi (yoki qabul qiluvchi davlatdagi) real ish haqi miqdori, P : Ish topish ehtimolligi (bandlik darajasi). Ushbu modelning muhim xulosasi shundaki, agar shaharda ish haqi juda baland boʻlsa, hatto u yerda ishsizlik darajasi yuqori boʻlsa ham, odamlar tavakkal qilib koʻchib borishda davom etaveradilar. Keyinchalik, Borjas (1989, 1999)

¹ UNHCR. (2024). Global Trends: Forced Displacement in 2023. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2023>

² Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., & Taylor, J. E. (1993). Theories of international migration: A review and appraisal. *Population and Development Review*, 19(3), 431–466. <https://doi.org/10.2307/2938462>

³ Harris, J. R., & Todaro, M. P. (1970). Migration, unemployment and development: A two-sector analysis. *The American Economic Review*, 60(1), 126–142.

ushbu modelni yanada rivojlantirdi va migratsiyaning qabul qiluvchi mamlakat mehnat bozorlariga ta'sirini empirik jihatdan o'rgangan.⁴

Stark va Bloom (1985) tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, migratsiya individual emas, balki oilaviy qaror sifatida qabul qilinadi⁵. Bu nazariya migratsiyani uy xo'jaligi daromadini diversifikatsiya qilish va pul o'tkazmalar orqali kapital to'plashning ratsional strategiyasi sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuv ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida katta ahamiyatga ega. Castles va Miller (2009) "Migratsiya asri" asarida migratsiyani global kapitalizm tizimining tarkibiy elementi sifatida talqin qiladi. Ularning yondashuviga ko'ra, *rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiy ta'sirini kengaytirish jarayonida rivojlanayotgan hududlarda migratsiya oqimlarini keltirib chiqaradigan sharoitlarni o'zlari yaratadi*.⁶ Bu doirada noqonuniy migratsiya iqtisodiy globallashuvning muqarrar natijasiga aylanib qoladi. Massey tomonidan taklif qilingan (1990) ijtimoiy tarmoqlar nazariyasiga ko'ra, migrantlar orasidagi aloqalar (oilaviy, qo'shnilik, do'stlik) yangi migratsiya uchun xavf va xarajatlarni kamaytiradi va shu tariqa jarayon o'z-o'zini kuchaytiradi. Avval kelgan migrantlar yangi keluvchilarga turar joy topish, ishga joylashish va yo'l xarajatlari borasida yordam beradi. Kerakli ma'lumot almashish orqali (masalan, qayerda nazorat kuchli, qayerda ish bor) yangi kelgan migrant uchun noaniqlik va xavf darajasi pasayadi. Shu zaylda har bir yangi migrant o'z vatandoshlari yoki tanishlari uchun yangi bir "ko'priq" yaratadi. Natijada migratsiya oqimi iqtisodiy sharoitlar o'zgarsa ham yoki hukumatlar cheklovni kuchaytirsam ham, ijtimoiy aloqalar hisobiga to'xtovsiz davom etaveradi. Bu mexanizm noqonuniy migratsiyaning qanday qilib cheklovchi siyosat choralaridan mustaqil ravishda davom etayotganini tushuntiradi.

NOQONUNIY MIGRATSIYANING ASOSIY SABABLARI

Noqonuniy migratsiya jarayonlarining asosiy sabablari haqida fikr yuritish mazkur muammoni hal etishning dastlabki qadamlaridan biridir. Har bir shaxs, jamiyat va davlat muayyan muammoga yechim qidirar ekan, joriy holat, muammo va og'riq manbaasini izlab topishga intiladi. Bunday intilish avvalo, *nega, nima uchun, qanday qilib* degan savollarga javob topishdan boshlanadi. Noqonuniy migratsiya qanday qilib davom etib kelyapti? Migrantlar nima uchun noqonuniy usullardan foydalanishmoqda? Insonlar nega bir joydan ikkinchi joyga ko'chadi? kabi savollarga javob izlash noqonuniy migratsiyaning asosiy sabablarini aniqlashga katta yordam beradi.

Avvalo, iqtisodiy tengsizlik noqonuniy migratsiyaning eng asosiy sababi hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi ish haqi farqi ko'pincha bir necha baravar ko'p bo'lishi mumkin. Markaziy Osiyodan migratsiyaning asosiy sabablari tahlil qilnganda mintaqa davlatlarida saqlanib qolayotgan kam ish haqi miqdori va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar bilan rivojlangan davlatlardagi yuqori daromad o'rtasidagi farq asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Sadovskayaning ta'kidlashicha, agar ilgari migratsiya faqat eng asosiy ehtiyojlarni qondirish (oziq-ovqat, kiyim-kechak) uchun bo'lgan bo'lsa, hozirda u uzoq muddatli maqsadlar - uy sotib olish,

⁴ Borjas, G. J. (1989). Economic theory and international migration. *International Migration Review*, 23(3), 457–485. <https://doi.org/10.2307/2546424>

⁵ Stark, O., & Bloom, D. E. (1985). The new economics of labor migration. *The American Economic Review*, 75(2), 173–178.

⁶ Castles, S., & Miller, M. J. (2009). *The age of migration: International population movements in the modern world* (4th ed.). Palgrave Macmillan.

ta'lim olish yoki biznes boshlash uchun vositaga aylangan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda mehnat resurslarining tez o'sishi va ichki mehnat bozorlari ushbu o'sishni ish o'rinlari bilan ta'minlay olmaslik jarayonlari ham migratsiyaga asosiy sabab bo'lmoqda⁷.

Ishsizlik va kambag'allik ham muhim omil hisoblanadi. Jahon Banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, qat'iy kambag'allikda yashovchi (kuniga 2,15 dollardan kam) kishilar soni 700 milliondan oshadi⁸. Biroq, iqtisodiy ta'minlanganlik va moddiy farovonlikni har doim ham migratsiya jarayonlarini oldini olishga asosiy omil sifatida ko'rish xato bo'ladi. Ya'ni migrantlar faqat iqtisodiy motivlar tufayli ko'chadi deyish to'g'ri emas. **Siyosiy omillar va qurolli mojarolar** ham migratsiyaning asosiy sabablaridan bo'lishi mumkin.

BMT Qochqinlar bo'yicha oliy komissariati (2023) Global Trends hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib zulm, mojarolar, zo'ravonlik va inson huquqlari buzilishlari natijasida 117,3 million kishi majburiy ko'chishga duchor bo'lgan⁹. Bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 8 foizga oshgan. Sudanda 2023-yil aprelda boshlangan mojarolar global ko'chish inqirozining asosiy omillaridan biriga aylangan.

Sudandagi inqiroz nafaqat mintaqaviy barqarorlikka, balki O'rta yer dengizi yo'nalishi orqali Yevropaga yo'l olgan noqonuniy migratsiya oqimlarining ham keskin o'sishiga sabab bo'ldi. Ko'plab sudanlik qochqinlar Liviya va Tunis orqali Yevropa Ittifoqi chegaralariga yetib borishga harakat qilmoqda.¹⁰

Siyosiy repressiya, demokratik institutlarning yo'qligi va huquq ustuvorligining kuchsizligi ham aholini migratsiyaga undaydi. Suriya, Afg'oniston va Ukraina inqirozlari bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. BMTning Qochqinlar bo'yicha oliy komissariyati (UNHCR) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib 43,3 million qochqin ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 73 foizi besh mamlakatdan - Suriya, Afg'oniston, Ukraina, Janubiy Sudan va Myanmadan kelgan¹¹.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda iqlim o'zgarishi noqonuniy migratsiyaning tobora muhim sababi sifatida saqlanib kelmoqda. Dunyo qochqinlari va ichki migratsiya kishilarning 70 foizidan ortig'i iqlim o'zgarishiga eng zaif mamlakatlardan keladi. 2022-yilda Pokistondagi suv bosqini 8 million kishini ko'chishiga sabab bo'lgan bo'lsa, Somali, Gonduras va Mozambikdagi qurg'oqchilik hamda siklonlar tufayli millionlab kishi uy-joyidan mahrum bo'lgan.¹²

BMTning Qochqinlar bo'yicha oliy komissariyati eksperti Filipino Grandi ta'kidlaganidek: *"Iqlim o'zgarishi, zo'ravonlik va iqtisodiy qashshoqlikning bir-biri bilan qo'shilishi odamlarni o'z*

⁷ Sadovskaya, E. (2021, April 30). *Trends in modern labor migration in Central Asia*. CABAR.asia.

⁸ World Bank. (2023). *Poverty, Prosperity, and Planet Report 2022: Pathways out of the Polycrisis*. World Bank Publications. <https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-and-shared-prosperity>

⁹ UNHCR. (2024). *Global Trends: Forced Displacement in 2023*. UNHCR Flagship Reports. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2023>

¹⁰ Frontex. (2024). *Migratory routes: Central Mediterranean*. European Border and Coast Guard Agency. <https://www.frontex.europa.eu/what-we-do/monitoring-and-risk-analysis/migratory-routes/central-mediterranean>

¹¹ UNHCR. (2024). *Global Trends: Forced Displacement in 2023*. UNHCR Flagship Reports. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2023>

¹² UNHCR. (2023). *Global Trends: Forced Displacement in 2022*. UNHCR Flagship Reports. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2022>

yurtlarini tashlab ketishga majburlashining eng kuchli omiliga aylanib bormoqda" (UNHCR, 2023, 14-bet).¹³

Noqonuniy migratsiyada ijtimoiy va demografik omillar ham o'z ulushiga ega. Migratsiya tarmoqlari va diasporaviy aloqalar noqonuniy migratsiyani kuchaytiruvchi ijtimoiy omil sifatida katta rol o'ynaydi. Taniqli tahlilchi Massey (1993) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, bir mamlakat fuqarolari jo'naydigan manzilga allaqachon yetib borgan kishilar bilan muloqot va aloqa yangi migrantlar uchun xavf va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu mexanizm migratsiyaga kumulyativ sabab-oqibat ta'sirini beradi¹⁴.

Bundan tashqari, demografik omillar ham muhim sabablardan biri hisoblanadi. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarning yuqori yoshlar ulushi va mehnat bozorining yetarli ish o'rni yarata olmasligida noqonuniy migratsiya ko'pincha yagona muqobil bo'lib qoladi.

NOQONUNIY MIGRATSIYANING IQTISODIY TA'SIRI

Noqonuniy migrantlarning qabul qiluvchi mamlakat mehnat bozoriga ta'siri ilmiy munozaraning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Borjas (1999) o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, past malakali mahalliy ishchilar noqonuniy migrantlar bilan raqobatda o'z ish haqi va bandligini yo'qotishi mumkin. Aniqroq qilib aytganda, Borjas, Grogger va Hanson (2009) o'rganishlariga ko'ra, ma'lum ko'nikma guruhida immigrantlar ta'minoti 10 foizga oshsa, mahalliy ishchilar ish haqi 2,5 foizga kamayadi¹⁵. Borjasning fikricha, past malakali migrantlar va xuddi shunday malakaga ega mahalliy ishchilar bir-birining o'rnini bosuvchi (substitutes) resurslardir. Taklif (migrantlar) ko'paysa, raqobat oshadi va narx (ish haqi) tushadi. Shundan kelib chiqib migratsiya umumiy iqtisodiyotga foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, bu foyda teng taqsimlanmaydi. Kapital egalari va yuqori malakali ishchilar yutadi, past malakali mahalliy aholi esa yutqazadi.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotlar immigratsiyaning iqtisodiy foydasini ham ta'kidlaydi. Masalan, AQSh Kongressi byudjet idorasi (CBO, 2024) hisob-kitoblariga ko'ra, 2021-2026-yillardagi immigratsiya to'loqini AQSh yalpi ichki mahsuloti 2034-yilda 3,2 foizga, ya'ni 1,3 trillion dollarga oshishi, Federal daromadlar esa 2024-2034-yillar oralig'ida 1,2 trillion dollarga ko'payishi tahmin qilinadi¹⁶. Qolaversa, noqonuniy migrantlar davlat byudjetiga ham foyda, ham zarar keltirishi mumkin. Ular odatda soliq to'laydi, lekin ko'p ijtimoiy nafaqalardan foydalana olmaydi. CBO (2024) hisobotiga ko'ra, immigratsiya to'loqini AQSh Federal byudjet defitsitini 2024-2034-yillarda 0,9 trillion dollarga kamaytiradi, chunki daromadlar xarajatlardan ko'proq oshadi.

Boshqa tomondan, Baker Institute (2025) hisob-kitoblariga ko'ra, 1 million kishini deportatsiya qilish narxi yiliga taxminan 88 milliard dollarni tashkil etadi¹⁷. Bu xarajat miqdori

¹³ UNHCR. (2023). *Global Trends: Forced Displacement in 2022*. UNHCR Flagship Reports. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2022>

¹⁴ Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., & Taylor, J. E. (1993). Theories of international migration: A review and appraisal. *Population and Development Review*, 19(3), 431–466. <https://doi.org/10.2307/2938462>

¹⁵ Borjas, G. J., Grogger, J., & Hanson, G. H. (2010). Immigration and the economic status of African-American men. *Economica*, 77(306), 255–282. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.2010.00843.x>

¹⁶ Congressional Budget Office. (2024). *The effects of the immigration surge on the federal budget and the economy*. <https://www.cbo.gov/publication/60165>

¹⁷ Baker Institute for Public Policy. (2025). Social and economic effects of expanded deportation measures. Rice University. <https://www.bakerinstitute.org/research/social-and-economic-effects-expanded-deportation-measures>

noqonuniy migratsiyani nazorat qilishning o'zi ham katta moliyaviy resurs talab qilishini ko'rsatadi. Bunday xarajatlarga imigrantlarni qidirish, hibsga olish, vaqtincha saqlash markazlarida bo'lishi va transport xarajatlari, immigratsiya sudlari, advokatlar va ma'muriy xodimlarning ish yuklamasi oshishi tufayli sarflanadigan huquqiy harajatlari kiradi. Bundan tashqari, hisobotda ta'kidlanishicha, ommaviy deportatsiya nafaqat byudjetdan mablag' sarflanishiga olib keladi, balki ishchi kuchi kamayishi hisobiga soliq tushumlari pasayishiga va ayrim sohalar, masalan, qishloq xo'jaligi va qurilishda ishlab chiqarishning qisqarishiga sabab bo'ladi.

Migrantlar tomonidan o'z vatanlariga amalga oshiradigan pul o'tkazmalar (remittances) noqonuniy migrantlarning o'z mamlakatlariga ko'rsatadigan eng muhim iqtisodiy ta'sirlaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Meksikaga yuborilgan pul o'tkazmalar 65 milliard dollarni tashkil etib, mamlakat YaIMining taxminan 3,3 foizini tashkil qilgan¹⁸. (Baker Institute, 2025). Markaziy Amerika, Karib havzasi va Janubiy Osiyoning kichik mamlakatlarida pul o'tkazmalar YaIMning 10-17 foizini tashkil etishi mumkinligini taxmin qilgan¹⁹. Massey va Taylor (2004): - *“Ko'pchilik tadqiqotlar migrant pul o'tkazmalarining bilvosita ta'sirlarini e'tibordan chetda qoldiradi, shu sababli ular rivojlanish uchun salbiy manzarani aks ettiradi”*²⁰- deb ta'kidlashadi. (Massey va Taylor, 2004, 157-bet). Ularning fikricha, agar pul o'tkazmalarining mahalliy iqtisodiyotdagi aylanmasi (multiplikatsiyasi) hisobga olinsa, migratsiya aslida milliy rivojlanishning muhim katalizatori ekanligi oydinlashadi.

Aksincha, Faini (2007) va Ramirez va Sharma (2008) kabi tadqiqotchilar pul o'tkazmalarining iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liqligini isbotlashsada, biroq, bu ta'sir ko'p jihatdan pul o'tkazmalar iste'mol yoki investitsiyaga yo'naltirilishiga bog'liq bo'lib qolaveradi deb ta'kidlashadi²¹. Ushbu mualliflar migrantlarning tranzit pul o'tkazmalari iste'molga yo'naltirilganligiga salbiy yoki neytral, investitsiyaga yo'naltirilganligiga esa ijobiy deb jihat deb qarashadi. Agar mablag'lar faqat import tovarlarni sotib olishga sarflansa, bu mahalliy inflyatsiyani oshirishi mumkin. Bu holda o'sish barqaror bo'lmaydi. Agar pullar kichik tadbirkorlikni boshlash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash yoki farzandlar ta'limiga (kelajakdagi mahsuldorlikka) sarflansa, bu iqtisodiyotning tarkibiy o'sishiga olib keladi.

NOQONUNIY MIGRATSIYANING XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

2001-yil 11-sentabrda AQShning Nyu-York shahridagi terakt voqeasidan keyin noqonuniy migratsiya va terrorchilik o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish siyosiy va akademik munozaraning markaziga chiqqan. Ba'zi hollarda noqonuniy migratsiya terrorizm va odam savdosi bilan bog'lab talqin qilina boshlandi. Migration Policy Institute tadqiqotchisi Amy Pope: *“Milliy xavfsizlik nuqtai*

¹⁸ Baker Institute for Public Policy. (2025). Social and economic effects of expanded deportation measures. Rice University. <https://www.bakerinstitute.org/research/social-and-economic-effects-expanded-deportation-measures>

¹⁹ Borjas, G. J., Grogger, J., & Hanson, G. H. (2010). Immigration and the economic status of African-American men. *Economica*, 77(306), 255–282. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.2010.00843.x>

²⁰ Massey, D. S., & Taylor, J. E. (2004). *International migration and economic development: Lessons from low-income countries*. In D. S. Massey & J. E. Taylor (Eds.), *International Migration and Economic Development* (pp. 157–173). Oxford University Press.

²¹ Faini, R. (2007). Remittances and protection in South–North migration. *Economic Policy*, 22(50), 344–380. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0327.2007.00180.x>

nazaridan xatarni noqonuniy migrantlar o'zlari emas, balki ularni yashirincha o'tkazuvchi tarmoqlar tashkil etadi"²² - deb takidlagan edi. (Pope, 2019, 14-bet).

Tahlillar ushbu munosabatning murakkab ekanligini ko'rsatadi. Mehlum va Freedman (2020) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot 1990-2014-yillar uchun AQShning 50 ta shtati bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilib, noqonuniy immigratsiya oqimi va terrorchilik faoliyati o'rtasida statistik jihatdan sezilarli ijobiy bog'liqlikni aniqlagan - ya'ni noqonuniy immigratsiya ko'payishi bilan terrorchilik hodisalari kamaygan²³.

AQSh Tashqi aloqlalar kengashi (Council on Foreign Relations) ma'lumotlariga ko'ra, Merilend universiteti ma'lumotlar bazasidagi 3203 ta radikallashtirish holatidan atigi 19 tasi - 0,6 foizdan kam - noqonuniy immigrant tomonidan amalga oshirilgan. 9/11 hujumchilarining barchasi esa qonuniy yo'llar bilan AQShga kirgan.²⁴ Demak, mazkur dalillar noqonuniy migrantlar mamlakatda jinoyatchilik va huquqbuzarlik ko'payishiga sabab bo'lmasligi haqidagi xulosani qo'llab quvvatlaydi.

Bundan tashqari, Migratsiya Siyosati Instituti (Migration Policy Institute) (2025) tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli tahlil shuni ko'rsatadiki²⁵, immigrantlar jinoyat sodir etish darajasi mahalliy aholi bilan solishtirganda aksariyat hollarda past ko'rsatkichga ega. Chunki, noqonuniy immigrantlar deportatsiya xavfidan qo'rqib, qonunga itoat qilishga mahalliy aholidan ko'proq moyil degan qarashlar mavjud. Ayni paytda, Cato Instituti (2024) tadqiqoti ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Noqonuniy immigrantlar orasida terrorchilik jinoyatlari uchun ayblov qo'yilganlar ko'rsatkichi juda past bo'lib, hech bir noqonuniy immigrant tomonidan amalga oshirilgan terror hujumida amerikalik fuqarolar hayotini yo'qotmagan.²⁶

Mamlakat chegaralar nazorati va odam savdosi bilan bog'liqlik

Noqonuniy migratsiyaning eng qorong'u tomoni - odam savdosi bilan bog'liqligi hisoblanadi. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yiliga minglab migrantlar xavfli yo'llarda hayotini va sog'lig'ini yo'qotadi yoki eksplutatsiyaga uchraydi. Chegaralar nazoratining kuchayishi ko'pincha xavfli yo'nalishlarni kamaytirishning o'rniga, noqonuniy immigrantlarni yanada xavfli marshrutlarga undaydi²⁷.

Kapetanovic, Dechesne va Van der Leun (2024) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, noqonuniy migratsiya tarmoqlari va uyushgan jinoiy guruhlar o'rtasida aloqa mavjud. Mazkur holat xavfsizlik

²² Pope, A. (2019). *The intersection of national security and migration*. Migration Policy Institute. <https://www.migrationpolicy.org/research/intersection-national-security-migration>

²³ Freedman, M., & Mehlum, H. (2021). Illegal immigration and terrorism: Evidence from the US states. *Social Science Research*, 94, 102514. <https://doi.org/10.1016/j.ssresearch.2020.102514>

²⁴ Council on Foreign Relations. (2023). *U.S. Immigration Policy*. <https://www.cfr.org/backgrounders/us-immigration-policy>

²⁵ Migration Policy Institute. (2025). *Immigration and Public Safety: Examining the Evidence on Crime and Integration*. <https://www.migrationpolicy.org/research/immigration-public-safety-evidence>

²⁶ Nowrasteh, A. (2024). *Terrorism and Immigration: A Risk Analysis, 1975–2023*. Cato Institute Policy Analysis. <https://www.cato.org/policy-analysis/terrorism-immigration-risk-analysis-1975-2023>

²⁷ International Organization for Migration (IOM). (2024). *A Decade of Documenting Migrant Deaths*. Global Migration Data Analysis Centre. <https://missingmigrants.iom.int/>

muammosi sifatida alohida e'tibor talab qiladi²⁸. Ularning fikricha, chegaralar yopilishi va qonuniy yo'llar cheklanishi migrantlarni professional jinoiy guruhlar xizmatiga muhtoj qilib qo'yadi. Bu guruhlar nafaqat odam tashish (smuggling), balki hujjatlarni qalbakilashtirish va yashirin moliya tizimlarini ham nazorat qiladi. Eng xavflisi, migratsiya yo'laklari ko'pincha boshqa turdagi transmilliy jinoyatlar (qurol-yarog' yoki kontrabanda) bilan kesishadi. Jinoiy guruhlar uchun migrantlar shunchaki "yuk" yoki foyda manbayi bo'lib, ular migrantlardan boshqa noqonuniy maqsadlarda foydalanishi xavfi yuqori hisoblanadi. Noqonuniy maqomdagi migrantlar jinoiy guruhlar tomonidan oson manipulyatsiyaga uchraydi. Qarzga botgan migrantlar ko'pincha mehnat ekspluatatsiyasi yoki noqonuniy bozorlarda ishlashga majbur qilinishi mumkin, bu esa bevosita jamiyatdagi kriminogen vaziyatga ta'sir qiladi.

Xalqaro hujjatlar. Noqonuniy migratsiyani tartibga solishning xalqaro-huquqiy asosi bir qancha muhim hujjatlardan iborat. 1951-yil Qochqinlar to'g'risidagi Konvensiya va uning 1967-yilgi Protokoli qochqinlarni qaytarib yubormaslik (non-refoulement) tamoyilini belgilaydi²⁹. 2016-yilda qabul qilingan Nyu-York deklaratsiyasi va 2018-yil Qochqinlar hamda migratsiya bo'yicha Global shartnomalar (GCM va GCR) xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi³⁰. Migratsiya bo'yicha global kelishuv (GCM, 2018) 23 ta maqsadni o'z ichiga oladi. Ular orasida qonuniy qonuniy migratsiya imkoniyatlarini kengaytirish, migrantlarni himoya qilish va noqonuniy migratsiyaning asosiy sabablarini bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, bu hujjatning ishtirokchi davlatlar uchun huquqiy majburiy kuchga ega emasligi uning amaliy samaradorligini cheklaydi.

Muvaffaqiyatli xalqaro tajribalar. Kanada va Germaniya Federativ Respublikasi noqonuniy migratsiyani boshqarishda qonuniy kanallarni kengaytirish orqali ijobiy natijalarga erishgan. Kanada o'ziga xos immigratsiya tizimini (point-based) iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'lib, noqonuniy migratsiyani kamaytirish va mehnat bozori kamomadini to'ldirishda samarali bo'lgan³¹. Ushbu tizim (Comprehensive Ranking System - CRS) nomzodlarni yoshi, ta'limi, ish tajribasi va til bilish darajasiga ko'ra saralaydi. Bu esa noqonuniy migratsiyaga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, malakali ishchilarni qonuniy yo'l bilan jalb qiladi.

Tavsiyalar. Ilmiy tahlil va xalqaro tajriba asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

Avvalo, migratsiya uchun qonuniy imkoniyatlarni kengaytirish lozim. Mehnat migratsiyasi to'g'risida ikki tomonlama kelishuvlar tuzish, malakali va malakali yuqori bo'lmagan ishchilar uchun vaqtinchalik viza dasturlarini rivojlantirish orqali ishchilar almashinuvi samarali yo'lga qo'yiladi. Bunday almashinuv ikki taraf bo'lgan davlatlar iqtisodiyoti va mehnat resurslarini oqilona taqisimlashiga katta yordam beradi. Natijada noqonuniy migratsiya jarayonlari ortidan yashirin foyda ko'rayotgan jinoiy guruhlar va shaxslarning faoliyati ancha cheklanadi.

²⁸ Kapetanovic, A., Dechesne, M., & Van der Leun, J. (2024). *The entanglement of irregular migration and organized crime: A security perspective*. European Journal of Criminology.

²⁹ UNHCR. (1951). *Convention and Protocol Relating to the Status of Refugees*. <https://www.unhcr.org/1951-refugee-convention.html>

³⁰ United Nations General Assembly. (2016). *New York Declaration for Refugees and Migrants (A/RES/71/1)*. https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_71_1.pdf

³¹ Immigration, Refugees and Citizenship Canada (IRCC). (2023). *2023 Annual report to Parliament on immigration*. Government of Canada. <https://www.canada.ca/en/immigration-refugees-citizenship/corporate/publications-manuals/annual-report-parliament-immigration-2023.html>

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, chegaralar xavfsizligi, ma'lumot almashish va birgalikdagi deportatsiya siyosati bo'yicha mintaqaviy kelishuvlarni mustahkamlash lozim. Bunday say-harakatlari transmilliy jinoyatlar, inson eksplutatsiyasi, odam savdosi, inson azolari savdosi va yirik jinoyi guruhlar faoliyatini cheklashda muhim qadamlar hisoblanadi.

Uchinchidan, inson huquqlarini hurmat qilish, ayollar, bolalar, shungdek, huquqiy himoyaga imkoniyati cheklangan migrantlarni himoya qilish, ulgar zarur tibbiy, huquqiy yordam berish tizimini takomillashtirish uchun xalqaro advokatlik institutlari faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shu yo'l orqali migratsiya jarayanlarini boshqarish chora-tadbirlarini xalqaro inson huquqlari standartlariga yanada muvofiqlashtirish mumkin.

To'rtinchidan, noqonuniy migratsiyaga oid qarorlarni siyosiy hissiyot bilan emas, balki ilmiy tadqiqotlar va miqdoriy ma'lumotlar asosida qabul qilish kerak. Saylovoldi va'dalar, populistik chiqishlar va boshqa ratsional bo'lmagan qarorlar bilan migratsiya va noqonuniy migratsiya munosabatlarini tartibga solishga urinish davlatlar orasida ishonch va hamdo'stlik, o'zaro anglaashuv va hamkorlik prinsiplariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan eng ko'p zararni migrantlar va mahaliy aholi ko'rsa, ko'proq foydani noqonuniy jinoyi guruhlar va yashirin faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar ko'radi. Chunki, migrantlarga nisbatan huquqiy kanallar va imkoniyatlar kichrayib borgan sari ular tashqi muhitda shuncha himoyasiz qolib ketishadi.

XULOSA.

Ushbu tadqiqot noqonuniy migratsiyaning ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatadi. Uning sabablari - iqtisodiy tengsizlik, siyosiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va ijtimoiy tarmoqlar - biri biriga o'zaro bog'liq bo'lib kuchli sinergetik ta'sirga ega. Qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sir ham bir tomonlama emas, mehnat bozori va byudjetga nisbiy foyda keltirsada, malakasiz mahalliy ishchilar uchun raqobatni oshiradi. Bundan tashqari, noqonuniy immigrantlar terrorchilik yoki jinoyatchilik bilan bog'liqlik darajasi ommaviy tasavvurdan ancha past ekanligi ko'rishimiz mumkin. Asosiy xavfsizlik muammolari - chegaralar nazoratidagi bo'shliqlar, odam savdosi tarmoqlari va uyushgan jinoyat - bevosita noqonuniy migratsiyaning o'zidan emas, balki uni harakatga keltiradigan sharoitlar va qonuniy muqobillarning yo'qligidan kelib chiqadi.

Mazkur muammoni hal etish uchun bir tomonlama cheklov siyosati yetarli emas. Samarali yechimlar iqtisodiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik, qonuniy usullarning kengaytirilishi va inson huquqlari tamoyillariga amal qilishni birlashtirgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlar uchun noqonuniy migratsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi uzoq muddatli sababiy aloqalarni yanada chuqur o'rganish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Baker Institute for Public Policy. (2025). *Social and economic effects of expanded deportation measures*. Rice University. <https://www.bakerinstitute.org/research/social-and-economic-effects-expanded-deportation-measures>
2. Borjas, G. J. (1989). Economic theory and international migration. *International Migration Review*, 23(3), 457–485. <https://doi.org/10.2307/2546424>
3. Borjas, G. J., Grogger, J., & Hanson, G. H. (2010). Immigration and the economic status of African-American men. *Economica*, 77(306), 255–282. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.2010.00843.x>
4. Castles, S., & Miller, M. J. (2009). *The age of migration: International population movements in the modern world* (4th ed.). Palgrave Macmillan.
5. Congressional Budget Office. (2024). *The effects of the immigration surge on the federal budget*

- and the economy. <https://www.cbo.gov/publication/60165>
6. Council on Foreign Relations. (2023). *U.S. Immigration Policy*. <https://www.cfr.org/backgrounder/us-immigration-policy>
 7. Faini, R. (2007). Remittances and protection in South–North migration. *Economic Policy*, 22(50), 344–380. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0327.2007.00180.x>
 8. Freedman, M., & Mehlum, H. (2021). Illegal immigration and terrorism: Evidence from the US states. *Social Science Research*, 94, 102514. <https://doi.org/10.1016/j.ssresearch.2020.102514>
 9. Frontex. (2024). *Migratory routes: Central Mediterranean*. European Border and Coast Guard Agency. <https://www.frontex.europa.eu/what-we-do/monitoring-and-risk-analysis/migratory-routes/central-mediterranean>
 10. Harris, J. R., & Todaro, M. P. (1970). Migration, unemployment and development: A two-sector analysis. *The American Economic Review*, 60(1), 126–142.
 11. Immigration, Refugees and Citizenship Canada (IRCC). (2023). *2023 Annual report to Parliament on immigration*. Government of Canada. <https://www.canada.ca/en/immigration-refugees-citizenship/corporate/publications-manuals/annual-report-parliament-immigration-2023.html>
 12. International Organization for Migration (IOM). (2024). *A Decade of Documenting Migrant Deaths*. Global Migration Data Analysis Centre. <https://missingmigrants.iom.int/>
 13. Kapetanovic, A., Dechesne, M., & Van der Leun, J. (2024). The entanglement of irregular migration and organized crime: A security perspective. *European Journal of Criminology*.
 14. Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., & Taylor, J. E. (1993). Theories of international migration: A review and appraisal. *Population and Development Review*, 19(3), 431–466. <https://doi.org/10.2307/2938462>
 15. Massey, D. S., & Taylor, J. E. (2004). International migration and economic development: Lessons from low-income countries. In D. S. Massey & J. E. Taylor (Eds.), *International Migration and Economic Development* (pp. 157–173). Oxford University Press.
 16. Migration Policy Institute. (2025). *Immigration and Public Safety: Examining the Evidence on Crime and Integration*. <https://www.migrationpolicy.org/research/immigration-public-safety-evidence>
 17. Nowrasteh, A. (2024). *Terrorism and Immigration: A Risk Analysis, 1975–2023*. Cato Institute Policy Analysis. <https://www.cato.org/policy-analysis/terrorism-immigration-risk-analysis-1975-2023>
 18. Pope, A. (2019). *The intersection of national security and migration*. Migration Policy Institute. <https://www.migrationpolicy.org/research/intersection-national-security-migration>
 19. Sadvovskaya, E. (2021, April 30). *Trends in modern labor migration in Central Asia*. CABAR.asia.
 20. Stark, O., & Bloom, D. E. (1985). The new economics of labor migration. *The American Economic Review*, 75(2), 173–178.
 21. UNHCR. (1951). *Convention and Protocol Relating to the Status of Refugees*. <https://www.unhcr.org/1951-refugee-convention.html>
 22. UNHCR. (2023). *Global Trends: Forced Displacement in 2022*. UNHCR Flagship Reports. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2022>
 23. UNHCR. (2024). *Global Trends: Forced Displacement in 2023*. UNHCR Flagship Reports. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2023>
 24. United Nations General Assembly. (2016). *New York Declaration for Refugees and Migrants* (A/RES/71/1).

https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_71_1.pdf

25. World Bank. (2023). *Poverty, Prosperity, and Planet Report 2022: Pathways out of the Polycrisis*. World Bank Publications. <https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-and-shared-prosperity>

